



GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARNING ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOY PEDAGOGIK ZARURIYAT

Tojiboyev Jaxongir Umidjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada "estetika", "estetik madaniyat" tushunchalari mazmuni va mohiyati, shuningdek, globallashuv sharoitida talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat ekanligi haqida so'z yulitilgan.

Kalit so'zlar: talabalar, estetika, estetik madaniyat, milliy qadriyat, g'oyaviy-estetik, sotsiologiya, psixologiya, san'atshunoslik, pedagogika, immunitet.

СОЦИАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В РАЗВИТИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Таджибаев Джахонгир
Ферганский государственный университет

Аннотация: В статье рассматриваются содержание и сущность понятий «эстетика», «эстетическая культура», а также социально-педагогическая необходимость развития эстетической культуры студентов в условиях глобализации.

Ключевые слова: студенты, эстетика, эстетическая культура, национальные ценности, идейно-эстетическая, социология, психология, история искусства, педагогика, иммунитет.

SOCIAL PEDAGOGICAL NEED FOR THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Tadjibaev Jakhongir
Fergana State University

Annotation: The article examines the content and essence of the concepts "aesthetics", "aesthetic culture", as well as the socio-pedagogical need for the development of aesthetic culture of students in the context of globalization.

Key words: students, aesthetics, aesthetic culture, national values, ideological and aesthetic, sociology, psychology, art history, pedagogy, immunity.

Yosh avlodni estetik shakllantirish jamiyat tarixiy rivojlanishining barcha bosqichlarida turli fan sohasida, jumladan falsafa, sotsiologiya, psixologiya, san'atshunoslik, pedagogika fanlari sohasidagi olimlarning doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Bu rivojlangan shaxsni kamol toptirishda san'atning ulkan ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi, chunki estetik shakllantirish – bu shaxsni rivojlantirishning ko'p qirrali jarayonidir.

Globallashuv sharoitida artpedagogikaning yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, g'oyaviy-estetik immunitetni rivojlantirishga yo'naltirilgan mexanizmlarning "Pop-art", "Pop-musiq", "Kitch", "Starizm" kabi deviantlik holatlarni



oldini olishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa shaxsni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog'lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda[1, 5].

“Estetika” so'zi – kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan so'zlardan biri bo'lib, u turli sohalarga (kiyim, spektakl, film, jihozlar estetikalari va h.k.) taalluqlidir. Bu tushunchalarni odatdagi kundalik hayotda qo'llash bilan professional darajada qo'llash o'rtasida farq bo'lishiga qaramasdan mazkur tushunchalar san'at asarlari va ayni paytda kundalik foydalaniladigan buyumlar, tabiat hodisalarining his-tuyg'u, ma'naviy sifatlarini umumlashtiruvchi qandaydir yagona tamoyilni anglatadi.

San'atning estetik mohiyati shundaki, unda inson borliqqa nisbatan o'zining estetik munosabatini ushbu borliqni badiiy anglash natijasi sifatida badiiy obrazda ifodalaydi, uning g'oyaviy-emotsional mazmuni, his-tuyg'u, obrazli sohalari, tegishli badiiy shakli estetik qimmatga egadir.

Estetik shakllantirishda estetik ongni shakllantirish ko'zda tutilgan bo'lib, uning tarkibiga estetik ehtiyoj, estetik tarbiya, his-tuyg'u (qayg'urish), baholash, ta'b-did, ideallar kiradi. Bularning barchasi baholovchi estetik munosabat ko'rinishida amalga oshiriladi va faoliyat yuritadi.

Estetik tarbiya, borliqqa nisbatan estetik munosabatni shakllantirish va shaxsning ijodiy faoliyatini go'zallik qonuniyatlari asosida faollashtirish jarayoni sifatida, predmetni to'liq o'zlashtirish sifatida kompleks ravishda ko'rib chiqilishi lozim, chunki u aqlan, ma'naviy, mehnat, ekologik, g'oyaviy va jismoniy shakllantirishning bir qismidir. Estetik munosabatning har bir komponenti shaxsning aqliy, axloqiy, ruhiy faoliyati bilan belgilanadi va bu uning dunyoqarashlarida, ishonchida, axloqida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, estetik faoliyat subyektiga aylantiradi, uning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarining obyektiv go'zallik qonuniyatlariga binoan kompleks rivojlanishiga yordam beradi.

Estetik tarbiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shaxsda go'zallikni tushunish, nozik did va o'tkir dunyoqarash, ma'naviy ehtiyoj va qiziqishlar, borliqqa va san'atga nisbatan emotsional-estetik munosabatni shakllantiradi, ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi.

Estetik tarbiya bola shaxsiga yaxlit va har tomonlama ta'sir ko'rsatadi, demakki, estetik tarbiya predmetining o'zida va mazmunida uning kelgusidagi rivojining asosi o'rin olgan. Estetik rivojlantirish muammosi yangilik emas. Faylasuflar, psixologlar, san'atshunoslar, pedagoglarning ko'plab asarlari mazkur muammoga bag'ishlangandir. O'rta asr Sharq mutafakkirlari Abu Nosir al-Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1050), Abu Ali ibn Sino (980-1037) ta'lim va tarbiyani shaxsni aqliy va ma'naviy rivojlantirish asosi deb hisoblaganlar hamda o'z asarlarida ushbu sohaga alohida e'tibor qaratganlar. Abdulla Avloniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon esa yosh avlodning bitmas-tuganmas qobiliyatini ochib berish uchun ularning estetik takomillashuviga sharoit yaratish zarur deb hisoblaganlar.

O'zbekiston olimlari va pedagoglari (I.M.Mo'minov, M.Xayrullayev, S.Shermuhammedov, S.K.Annamuratova, S.X.Fayzullina, Sh.E.Qurbonov, I.Ahmedov va boshq.) ham maktab o'qituvchilarini san'at vositasida estetik shakllantirish muammosini hal qilishga katta hissa qo'shganlar.

Ilmiy adabiyotda “madaniyat” tushunchasi ko'p ma'noli, ko'p jihatli hodisa sifatida ifodalanadi (A.I.Arnoldov, L.M.Arangel'skiy, V.I.Bakshtanovskiy, B.S.Bratus, S.N.Ikonnikov, D.M.Stankov, A.I.Titarenko, A.K.Uledov va boshqalar)[2].



Mualliflar madaniyatning ko'pfunksionalligini alohida ta'kidlaydilar, uning ijtimoiy tabiatini, insonparvarlikka yo'naltirilganligini ajratib ko'rsatadilar. Madaniyatning quyidagi turlari tahlil qilinadi: tashkillashtiruvchi madaniyat (R.Lavl), innovatsion madaniyat (V.I.Dolgova), axborot madaniyati (Y.P.Melenteva), psixologik madaniyat (N.T.Seleznyova), shuningdek, tafakkur madaniyati (O.S.Anisimov).

Madaniyatni keng ko'lamda anglash imkonini beruvchi ta'rif - bu uning ensiklopedik ta'rifidir. Madaniyat (lotin. kultura - ishlov berish, tarbiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish, e'zozlash) - jamiyat rivojlanishi, inson ijodiy kuchlari va imkoniyatlari rivojlanishining odamlar hayoti va faoliyatini tashkillashtirish turlari va shakllarida, ularning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan muayyan darajasidir.

Ko'p mualliflar "madaniyat" tushunchasini uning inson faoliyati bilan genetik aloqasidan tashqariga olib chiqadilar. Ular madaniyatda avvalambor dasturlovchi vazifani ajratib ko'rsatadilar (M.S.Kagan, E.S.Markaryan, V.M.Mejuyev).

"Madaniyat - bu odamlar ishlab chiqarayotgan va qanday qilib ishlab chiqarayotgan narsadir". Shu bilan birga ishlab chiqarish ostida odamlarning ijtimoiy-madaniy faoliyati bo'lgan jamiki inson faoliyati majmui tushuniladi. Boshqa ma'noda madaniyat xayolning tushunishga oid apparatini tashkillashtirish meyorlari sifatidagi anglash natijalarini bayon qilishning mantiqiy qonunlarini egallashdan iborat. Qator mualliflar odamlarning ma'lum jamoasi madaniyatining umumiy jihatlarini o'rganadilar.

M.Kubr madaniyatni muayyan odamlar guruhiga xos bo'lgan qadriyatlar, fikrlar, an'analar va xulq-atvor meyorlarini jamoada mavjud tizimi sifatida tushunadi.

Shaxs madaniyat subyekti sifatida ijtimoiy barqarorligi, ijtimoiy va kasbiy hayotga samarali tarzda kirishganligi hamda psixologik muvofiqligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, madaniyatga muvaffaqiyatli tarzda kirib borish uchun inson unda o'z o'rnini topishi, o'zining madaniyat bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari tizimini aniqlab olishi lozim[3,678]. Yuqorida aytilganlar madaniyat tushunchasini aniqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Estetik madaniyat - keng qamrovli bo'lib, estetik faoliyat bilan bog'langan munosabat va qadriyatlar tizimini ifoda etadi.

Estetik madaniyat jamiyat madaniyatining bir qismi bo'lib, uning mazmunini san'at va estetik munosabatlar rivojlanishi xarakterlaydi. Estetik munosabat va unga muvofiq keladigan estetik qadriyatlar tizimi estetik madaniyatning barqaror unsurlari hisoblanadi.

San'atdagi estetik maqsad, go'zallik va mukammallik yagona maqsad hisoblanadi. Estetik madaniyatning san'at orqali namoyon bo'ladigan faoliyati tufayli insonni tarbiyalashi, kurashga chorlashi, fikrini uyg'otishi, his tuyg'ulariga ta'sir etishi, kuldirishi yoki yig'latishi mumkin. Badiiy madaniyat estetik madaniyatning o'zagi hisoblanadi. Estetik madaniyatning tuzilishi ko'p qatlamli bo'lib, estetik ongini, estetik momentlarni, estetik tarbiyani o'z ichiga oladi. Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviy madaniyatning barcha unsurlari singari estetik madaniyatning ham ahamiyati oshib boradi. Y.B.Borev, I.V.Goncharenko, B.T.Lixachev, E.V.Kvyatkovskiy, V.K.Skaterchikov, N.M.Chavchavadze ishlarida insonning estetik madaniyatini shakllantirish muammolarining falsafiy va ijtimoiy asoslari ko'rib chiqilgan.

Bugungi kunda respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida badiiy to'garaklar faoliyat ko'rsatmokda. Badiiy to'garaklar - talabalarning qizikishlari asosida tashkil



etiladigan guruxlar bo'lib, ular talabalarning bo'sh vaqtlarini maksadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ma'naviy, g'oyaviy-estetik, ilmiy dunyokarashlarini shakllantirish, yoshlarning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratish, shuningdek tarbiya, targ'ibot, tashviqot funksiyalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, ixtiyoriy, baxolanmaydigan mahsuldor (ijodiy) faoliyat shakli xisoblanadi.

Talaba shaxsini milliy g'oya va milliy ma'naviyat asosida shakllantirish muammosining nazariy jixatlari serqirra va keng kamrovli jarayondir. Badiiy to'garaklardagi ta'lim-tarbiyaviy tizimning maqsad va vazifalari yunaltirilgan obyekt talaba, ya'ni shaxsdir. Bunda talaba nafakat bilim oluvchi yosh yigit-kiz, balki faol, vatanparvar fuqaro, intellektual va estetik sifatlar egasi, kreativ shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy talim muassasalari badiiy to'garaklari oldida talabalarda mustaqil badiiy, estetik munosabat, milliy san'atimizga muxabbat tuyg'ularini shakllantirish, "ommaviy madaniyat"ning asl maqsad- moxiyatini tushuntirish, talabalarni yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi san'at namunalaridan ximoya qilish; milliy g'oya ideallari asosida yashash va ishlashga o'rgatish; O'zbekistonni rivojlantirishning beshta yunalishga asoslangan Xarakterlar strategiyasi moxiyatini uqtirish; milliy urf- odatlarimiz va an'alarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma'naviyat va ma'rifatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, ustozlarga xurmat, ularni e'zozlash, barcha jabxalarda talabalarning milliy va umuminsoniy kadriyatlarga e'zozli munosabatini tarbiyalash kabi vazifalar yuklatilgan.

"Ommaviy madaniyat" iborasining keng tarqala boshlashi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. "Ommaviy madaniyat" an'anaviy madaniyatning ma'lum yo'nalishi sifatida emas, balki madaniyatdagi sifat o'zgarishi, texnologik rivojlanishi taqozosi asosida yuz berdi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining keskin rivojlanib, ma'naviy maxsulotlarni industrial tijorat tarzida ishlab chiqarish va tarqatish rivojlandi. Buning natijasida, axolining bilim darajasi o'sishi bilan birga uning ma'naviy extiyojlarida pasayish jarayoni kuzatila boshladi.

Aholining badiiy didi yuksak bo'lmagan toifalarining talablarini qondirish va shakllantirish maksadida ommaviy badiiy adabiyot (fantastika, sarguzasht, bulvar adabiyoti, "ayollar" romani) dunyoga keldi. Shuningdek, arzon-garov, jangari, triller, melodrama va boshka filmlar xamda musiqa g'oyasi odamlarda ommaviy munosabatlarni karor toptirish ekanligi kuzatiladi.

P.Byukenen "G'arbning o'limi" nomli kitobida shunday deydi: "Gedonistik ko'shiklarni kim to'xtatadi? Bunday jozibali o'lim qo'shig'ini yoshlarga qarab xamma - Gollivud, MTU, "ko'pik operalar", teleko'rsatuvlar, glamur jurnallar, shou biznes, ayollarning ishqiy g'iybatlari, mish-mishlari, bestsellerlar kuylayotir. O'qituvchidan tortib dindorgacha, xamma yoshlarga "kondom" tutkazayotir... Bu qismat "ommaviy madaniyat" kasofatidan bo'ldi. Chunki, "ommaviy madaniyat o'z kadriyatlari iyerarxiyasida shaxvoniy xirsni onalik baxtidan yuqori qo'yadi. Ayollar jurnallari, "ko'pik operalar", ayollarning ishkiy romanlari, praym-taym teleko'rsatuvlar, xammasida karyera, seks, yosh va yolgiz juvonning mustakilligi sharaflanadi"[4, 68]. Internet tarmog'i orqali "ommaviy madaniyat" maxsulotlari mamlakatimizga kirib kelmokda va ayniksa, yoshlar o'rtasida keng tarqalmokda. Natijada, kadimiy, betakror milliy madaniyat va san'at makonida yoshlarning g'oyaviy-estetik dunyokarashiga



salbiy ta'sir kursatuvchi kontent xajmi va turlari kupayib bormokda. Bu esa talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash oldiga muxim va yangi vazifalarni qo'ymokda[1, 12].

Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu nafosat ongi, nafosatni his etishga bo'lgan ehtiyoj, uni qondirish yo'lida tashkil etilgan munosabatlardir.

Oliy ta'lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarda ilmiy-uslubiy hamda axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish bugun barcha turdagi o'quv muassasalaridagi har bir fan o'qituvchisining asosiy vazifasi hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu madaniyatning yuqori darajada shakllangan bo'lishi kasbiy faoliyatda estetik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mustafayev Sh.N., Globallashuv sharoitida talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyasi (Badiiy to'garaklar faoliyati misolida): p.f.b. f.d. ... (PhD) disser. ... avtor. ... Samarqand – 2018. 5b
2. Semenov I. N. Tipologiya, periodizatsiya i organizatsiya refleksivnogo podxoda v psixologii i sotsialno-gumanitarnix naukax. M.; Yaroslavl, 2004.
3. Kultura // Sovetskiy ensiklopedicheskiy slovar. - M., 1989. - S. 678.
4. Byukenen P. Dj. Smert Zapada. Per. s angl. A. Bashkirova. -M.: OOO "Izdatelstvo AST; SPb.: Tegga Fantastica, 2003. -444s. 68-b